



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Ольга Кобзева БАРОНЫ РИХТГОФЕНЫ: ИСТОРИКИ И ГЕОГРАФЫ.....	5
2. Oybek Rashidov O‘ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI.....	15
3. Sevara Pulatova O‘ZBEKISTON MUZEYLARI INNOVATSION RIVOJLANISH YO‘LIDA.....	21
4. Ойдин Маннопова ПЕРИОД СТАБИЛИЗАЦИИ И РОСТА ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО И ИНВЕСТИЦИОННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИЕЙ (2000 – 2008 гг.).....	27
5. Faxriddin Yormatov ALISHER NAVOIYNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O‘RNI VA DIPLOMATIK QARASHLARI.....	32
6. Feruza Atajanova OLIIY TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR MOHIYATI: YUTUQLAR, KAMCHILIKLAR VA NATIJALAR.....	37
7. Ikrom Djurayev MARKAZIY OSIYODA QADIMGI KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ AHOLINING O‘ZARO MUNOSABATLARI.....	42
8. Muslima Bazarova O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI TADBIRKORLIGINI MOLIYAVIY QO‘LLAB- QUVVATLASHDA BANKLARNING O‘RNI.....	49
9. Diyora Chorshanbiyeva YOSHLARGA OID DAVLAT DASTURLARI VA ULARNING NATIJAVIY TAHLILI.....	56
10. Муродилла Хайдаров ФРЕДЕРИК СТАПП [1] МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ... [2].....	62
11. Xamro Raxmonov O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA‘MINLASHGA OID DAVLAT SIYOSATI.....	69
12. Umrbek Salayev QADIMGI XORAZM: TARIXIY MANBALAR VA ILMIY TALQINLAR TAHLILI.....	75



Sevara Akmalovna Pulatova,
Alfraganus universiteti,
Xalqaro munosabatlar va tarix kafedrası,
tarix fanlari nomzodi, professor

O'ZBEKISTON MUZEYLARI INNOVATSION RIVOJLANISH YO'LIDA

For citation: Sevara A. Pulatova. MUSEUMS OF UZBEKISTAN ON THE PATH OF INNOVATIVE DEVELOPMENT. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18700931>

ANNOTATSIYA

Muzey qator ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni hal qiluvchi murakkab, ko'p bosqichli tizimdir. Millat tarixini keyingi avlodlarga yetkazishda va dunyoga tanitishda muzeylarning o'rni katta. Ayni vaqtda muzeylar oldida bo'sh vaqtni tashkil etish, kognitiv, ko'ngilochar va badiiy funksiyalarni ham bajarish vazifasi turibdi. Muzeylar faoliyatidagi innovatsion o'zgarishlar, avvalo, madaniyat tashkilotlari va ko'ngilochar industriya bilan raqobat sharoitida odamlarni muzeyga jalb etishga qaratilgan. O'zbekiston muzeylarini innovatsion rivojlantirishda muzeylar faoliyatini raqamlashtirish, virtual turlar va interaktiv ko'rgazmalarni faol joriy etish ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: muzeylar, O'zbekiston, innovatsiya, tarix, Islom sivilizatsiyasi markazi.

Sevara A. Pulatova,
Alfraganus University,
Department of International Relations and History,
Candidate of Historical Sciences, Professor

MUSEUMS OF UZBEKISTAN ON THE PATH OF INNOVATIVE DEVELOPMENT

ABSTRACT

A museum is a complex, multi-layered system that addresses a number of socially significant issues. Museums play a vital role in preserving and transmitting the nation's history to future generations. At the same time, museums serve as a means of organizing leisure activities, fulfilling educational, entertaining, and artistic functions. In the face of competition from cultural organizations and the entertainment industry, innovative changes in museum operations are primarily aimed at museum attracting people to museums. The digitalization of activities, the active implementation of virtual tours, and interactive exhibitions serve this goal.

Index Terms: Museums, Uzbekistan, innovation, history, Center of Islamic Civilization.

Севара Акмаловна Пулатова,
Альфраганус университет,
Кафедра международных отношений и истории,

МУЗЕИ УЗБЕКИСТАНА НА ПУТИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ

АННОТАЦИЯ

Музей представляет собой сложную многоуровневую систему, решающую ряд социально значимых задач. Музеи играют важную роль в сохранении и передаче истории нации будущим поколениям. Одновременно с этим перед музеями стоит задача организации досуга, музеи выполняют познавательные, развлекательные и художественные функции. В условиях конкуренции с культурными организациями и индустрией развлечений, инновационные изменения в деятельности музеев направлены прежде всего на привлечение людей в музеи. Цифровизация музейной деятельности, активное внедрение виртуальных туров, интерактивные выставки служат достижению этой цели.

Ключевые слова: музеи, Узбекистан, инновации, история, Центр исламской цивилизации.

1. Dolzarbligi. Tarixiy xotira hamda milliy o'zlikni saqlab qolish va uni keyingi avlodlarga yetkazishda, shuningdek, millat tarixini dunyoga tanitishda muzeylarning o'zni katta. Bu esa, o'z navbatida muzeylarni jamiyatning zamonaviy talablariga mos holda har tomonlama rivojlantirishni dolzarblashtiradi. Zamonaviy muzey oldiga endilikda tarixiy bilimlar berish bilan cheklanib qolmasdan, insonlarni tarixiy muhitga olib kirish, "jonlantirish" vazifalari ham qo'yilmoqda. Shu ma'noda muzeyning auditoriya bilan muloqotida monolog emas, dialog ustuvorlik kasb etdi. Ayni shu nuqtayi nazarda muzeylar o'z ashyolarini hamda tarixiy voqealarni yangi shakl va vositalarda namoyon etishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Qolaversa, so'nggi o'n yillikda muzey ishiga munosabat tubdan o'zgardi va bu soha O'zbekiston madaniyat siyosatining faol aktoriga aylandi. Mana shu jihat jarayonlarni umumlashtirish zarur ekanligini ko'rsatadi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Maqolada ko'rilgan masalalar tarixiylik, qiyosiy tahlil, muammo-xronologik, obyektiv va tizimli tahlil usullari yordamida o'rganildi. Tadqiqot mavzusi doirasida o'rganilgan adabiyotlarning alohida guruhini Muzeyshunoslik bo'yicha yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalar tashkil etadi [1,2,3]. Muzey faoliyati yuzasidan J.Ismoilova, S.Muxamedova [4], V.Almeyer [5], A.Qurbonova [6], T.Kuryazova [7], N.Xabibullayev [8] kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari o'rganildi. Maqolada O'zbekiston tarixi muzei tomonidan tashkil etilgan "Muzeylar: an'ana, novatsiya va renovatsiya integratsiyasida" mazusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan foydalanildi [9]. Shuningdek, mavzuga oid internet resurs bazalari o'rganilib [10,11,12,13,14,15,16], ular asosida faktik ma'lumotlar to'plandi va tahlil qilindi.

3. Tadqiqot natijalari. Mustaqillikning dastlabki yillarida muzey ishi sohasida noyob madaniy boyliklarni saqlash, O'zbekistondan olib chiqish va olib kirish, chet mamlakatlari tashkilotlari bilan ko'rgazmalar tashkil etish bo'yicha hamkorlik qilishni yo'lga qo'yish kabi masalalarga e'tibor qaratildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi PF-1913-son Farmoni bilan "O'zbekmuzey" jamg'armasi tuzilda va u 2017-yilgacha faoliyat yuritdi. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirgan ushbu tashkilot, shuningdek, O'zbekiston muzeylari Jamoatchilik kengashi – Xalqaro muzeylar kengashiga (ICOM) a'zo bo'ldi. "Moziydan sado" jurnali ta'xis etildi, 1999-yildan muzeyshunos mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

2008-yil 12-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, unda muzeylarni boshqarish, Milliy muzey fondi va uning ochiqqligini ta'minlash, muzeylarni tashkil etish kabi masalalar qamrab olindi, Milliy muzey fondi Davlat katalogi yuritila boshlandi. Mamlakatda 2014-yili "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinib, bu boradagi davlat dasturi doirasida haftaning har seshanba va juma kunlari bolalarning respublika davlat muzeylariga bepul kirishi, har yili 2 – 8-sentyabr kunlari "Muzeylar haftaligi" o'tkazilishi joriy qilindi.

Muzeylar faoliyatida mustaqillik hodisasi bilan bog'liq tarzda o'zgarishlar amalga oshirildi: sovet mafkurasidan voz kechildi, ilgari ishlanmagan mavzular fan bilan birgalikda muzey sohasining obyektlariga aylandi. Avvalo, mamlakatning bosh muzeyi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 21-apreldagi qaroriga asosan "O'zbekiston tarixi muzeyi" nomi bilan qayta tashkil etildi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi (1996-yil), Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi (2002-yil), Termiz shahridagi Arxeologiya muzeyi (2001-yil), Olimpiya shon-shuhrati muzeyi (1996-yil), Aloqa tarixi muzeyi (2009-yil) kabi yangi muzeylar barpo etilib, faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ayni vaqtda respublikadagi barcha muzeylarning faoliyatini hamda muzey ishini rivojlantirish, moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash kabi masalalar to'planib qolgan edi. Shu ma'noda 2017-yil muzey ishida belgili bo'ldi va mamlakatdagi modernizatsiya jarayonlari bilan bog'liq holda soha rivojida yangi bosqich boshlandi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-son qarori bilan "2017 – 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi" tasdiqlandi. Shu yili Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi Fanlar akademiyasi tizimidan Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'tkazildi va viloyatlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida hududiy muzeylar tashkil etila boshlandi.

So'nggi o'n yillikda Toshkent tarixi muzeyi (2020-yil), "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi tarkibidagi "Shon-sharaf" davlat muzeyi (2020-yil), Shahrisabz shahrida "Maqom" muzeyi (2018-yil), Rishton an'anaviy kulolchiligi tarixi nodavlat muzeyi (2025-yil), Jadidlar merosi davlat muzeyi (2024-yil), Abdulla Qodiriy uy (2019-yil) va memorial (2020-yil) muzeylari, Erkin Vohidov uy va memorial (2019-yil) muzeylari, Samarqandda Imom Buxoriy innovatsion muzeyi (2025-yil) kabi o'nlab yangi muzeylar tashkil topdi.

Ayniqsa, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilishi respublika madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi. Markaz binosi barpo etilishi Prezidentning 2017-yil 23-iyundagi qaroriga asosan boshlanib, uning poydevoriga tamal toshi 2018-yili Ramazon hayiti kuni qo'yilgan edi. Bino 2025-yili foydalanishga topshirildi. Inshootning markaziy qismida Qur'oni karim zali joylashgan. Shuningdek, Majmuada "Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar", "Birinchii Renessans", "Ikkinchi Renessans", "O'zbekiston XX asrda", "Yangi O'zbekiston – yangi Renessans" bo'limlari tashkil etilgan.

Ayni shu markaz doirasida chet mamlakatlarda saqlanayotgan va ulug' allomalar merosi bilan bog'liq qimmatli manbalar, ashyolar qaytarildi [10].

Bu borada qisqa muddat, aniqrog'i, 2017 – 2021-yillarda faoliyat yuritgan O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi xodimlari safarlari natijasida to'plangan ma'lumotlar kiritilgan xorijdagi O'zbekistonga oid qo'lyozma asarlar reyestri ayni muddao bo'ldi.

Ta'kid etish kerakki, muzeylar faoliyatini takomillashtirishda, yangilarini tashkil etishda aynan ekspozitsiyalarni shakllantirishda madaniy boyliklarni namoyish etish qatorida ikki yo'nalishga alohida e'tibor qaratilmoqda: ilmiy-tadqiqot va innovatsiya.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishda muzeylar faqatgina o'z ilmiy xodimlari bilan cheklanib qolmasdan, mavzu bo'yicha olimlar va mutaxassislarini birlashtiruvchi maydonga aylanib bormoqda. Bu ishlar tizimli amalga oshirilishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilgan. Birgina O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi misolida 2024 – 2026-yillarda muzey ekspozitsiyasini boyitish maqsadida 800 dan ortiq ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda [11]. Shuningdek, yangi tashkil etilayotgan muzeylar yo'nalishiga qarab joylashuvi turizm bilan bog'liqlikda ishlab chiqilayotganligi, muzey alohida holda emas, balki tegishli makonning bir qismi sifatida tarixiy, an'anaviy, zamonaviy madaniyat majmualaridan o'rin olayotganligini qayd etish kerak. Masalan, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi Hazrati Imom majmuasi yonida joylashgan bo'lib, u oziq-ovqat ko'chalari va hunarmandlar ustaxonalarini o'z ichiga olgan yangi "Eski shahar" turistik klasteri bilan birlashtirildi. Yana bir misol: Imom Buxoriy innovatsion muzeyi imom al-Buxoriy majmuasining bir qismi hisoblanadi.

Muzeylar faoliyatidagi innovatsion o'zgarishlar avvalo madaniyat tashkilotlari va ko'ngilochar industriya bilan raqobat sharoitida tashrif buyuruvchilarni jalb etish bilan bog'liq. Bu

borada tashrif buyuruvchi, hatto, butun bir oila tashrif buyurganida uning har bir a'zosi vaqtini ham maroqli, ham samarali o'tkazishi uchun shart-sharoitlar bo'lishiga ustuvorlik berilmoqda. Ayni hozirgi raqobat sharoitida muzeylar an'anaviy faoliyat shakllari va usullarini qayta ko'rib chiqib, turli yosh va qiziqishlarga ega tashrif buyuruvchilarning muzeyga qiziqishlarini nafaqat saqlab qolishga, balki oshirishga harakat qilishmoqda.

O'zbekistonda ham muzeylar mamlakat madaniyati hamda iqtisodiyotida ko'p funksiyali tarixiy va madaniy markazlarga aylanib bormoqda. Bu borada muzeylar ekskursiyalar bilan bir qatorda ta'lim va madaniy rivojlanish dasturlarini – lektoriylar, mahorat darslari, kurslar kabi tadbirlarni taklif qilmoqda.

Innovatsion jihatdan muzeylar faoliyatini raqamlashtirishga, virtual turlar va interaktiv ko'rgazmalarni faol joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda pandemiya ham bu yo'nalishga talabni keskin oshirdi. Oxirgi uch-to'rt yil ichida muzeylarda katta muddatda, ya'ni, boshqa mamlakatlarda 10 – 20 yil davomida amalga oshirilgan raqamli transformatsiya sodir bo'ldi.

Mavjud elektron sensorli kiosklar, elektron plazmali panellar, ko'p tilli audio-gidlar qatorida dastlab har bir ashyo va kolleksiyalar uchun QR-kod tizimi joriy etilgan bo'lsa, hozirda virtual reallik, kengaytirilgan reallik va sun'iy intellekt kabi texnologiyalardan foydalanilmoqda. Bularning bari muzey ekspozitsiyalarini, qolaversa, mavzu, davrni chuqurroq o'rganishga qo'shimcha elektron materiallar taqdim etishi bilan ahamiyatlidir. Qolaversa, muayyan darajada saqlangan muzey ashyosining, masalan, sopol idishning shaklini virtual ko'rinishda tiklash imkonini beradi. Bir qancha muzeylar ekspozitsiyalarda tarixiy shaxslar sun'iy intellekt yordamida jonlantirilib, o'zlari haqida ma'lumot berishmoqda. Imom Buxoriy innovatsion muzeyida esa, bolalar 5D shaklidagi "uchar gilamga" o'tirib moziyga sayohat qilishadi.

2024-yili O'zbekiston Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi tomonidan Tashkent City Mallda tashkil etilgan "Jadidlar. Turkistonga maktublar" multimedia ko'rgazmasi tarixga ixtisoslashgan formatdagi ilk ko'rgazma bo'ldi. Unda suratlar, hujjatlardan iborat ashyolar, raqamli texnologiyalar yordamida tayyorlangan installyatsiyalar, ta'sirchan saundtrek orqali Germaniyaga o'qishga yuborilgan turkistonlik 73 nafar talaba haqida hikoya qilinadi [12].

Shuningdek, O'zbekistonda tashkil etilayotgan immersiv ko'rgazmalarga ham to'xtalib o'tish joiz. Bu ko'rgazmalar o'zining dinamikasi bilan an'anaviy ko'rgazmalardan farq qiladi. Unda shou effekti ustuvorlik qilib, bunga kompozitsiyalar, ranglar va musiqaning o'zgartirilishi bilan amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalishdagi ko'rgazmalar uchun "Uzexpomarkaz" milliy kompaniyasining ko'rgazmalar markazi asosiy maydon bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, 2022-yilning 16-noyabr – 2023-yil 15-fevral kunlari o'tkazilgan "Van Gog kabi bo'lish" multimedia ko'rgazmasi ikki bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limda rassomning 400 asari devoru pollarda "jonlanadi". Bu esa tashrif buyuruvchida o'zini "jonli" kartinalarning bir qismi kabi his qilish imkonini beradi. Ikkinchi bo'limda rassomning hayot yo'li uning o'z tilidan hikoya qilinadi, o'rnida maktublaridan satrlar o'qiladi [13]. 1-mart – 1-iyun davomida esa "Monedan Kandinskiyigacha. San'atdagi inqilob" ko'rgazmasi o'tkazildi. HD proyeksiyalar, animatsion grafika va Yevropa mumtoz musiqa uyg'unligidagi mazkur ko'rgazmada XIX asr oxiri va XX asr boshlari dunyo badiiy madaniyatining mashhur to'qqiz namoyondasi – Klod Mone, Jorj Syora, Vinsent Van Gog, Edvard Munk, Pol Sezann, Xuan Gris, Robert Delone, Pol Kleye, Vasiliiy Kandinskiyning asarlari namoyish etildi [14].

2024-yil mart – aprel oylarida Londonda simvolizmdan boshlab to syurrealizm vakillari asarlarining immersiv ko'rgazmasi o'tkazilayotgan bir vaqtda Toshkentning o'zida 7-mart kuni "Savitskiy: Eski va yangi" multimedia ko'rgazmasi ochildi va 8-iyungacha davom etdi.

Ushbu va shu kabi innovatsion formatdagi ko'rgazmalar 2017-yilda tashkil topgan O'zbekiston Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi tomonidan o'tkazib kelinmoqda. Shuningdek, jamg'arma 2022-yil 23-noyabr – 2023-yil 6-mart kunlari davomida Luvr muzeyida ilk bor O'zbekistonning boy merosiga bag'ishlangan "O'zbekiston vohalarining xazinalari. Karvon yo'llari chorrahasida" nomli ko'rgazmani, 2022-yil 23-noyabrdan 2023-yil 4-iyungacha Parijdagi Arab dunyosi institutida "Samarqandga yo'l. Ipak va oltin mo'jizalari" nomli yirik ko'rgazmani,

2023-yil 4-mayidan yil oxirigacha Berlinda “O‘zbekistonning arxeologik xazinalari. Aleksandr Makedonskiydan Kushonlar imperiyasigacha” nomli ko‘rgazmani tashkil etdi.

2025-yilning 27-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida O‘zbekiston Milliy muzeyi qurilishiga tamal toshi qo‘ydi. Umumiy maydoni 40 ming kvadrat metr bo‘ladigan muzey Abulqosim madrasasi, Xalqlar do‘stligi saroyi va O‘zbekiston Milliy bog‘i bilan bir joyda yaxlit me‘moriy kompozitsiyaga aylanadi. Bu yerda hozirda poytaxtning turli muzeylarida tarqoq joylashgan tarixiy ashyolar, qo‘hna va zamonaviy san‘at asarlari jamlanib, bir vaqtning o‘zida 10 mingga yaqin eksponatni namoyish qilish mumkin bo‘ladi. Keyinchalik muzeyda Luvr, Metropoliten va Britaniya muzeylarining ko‘rgazmalarini o‘tkazish rejalashtirilgan [15].

Umuman, O‘zbekistonda muzey sohasi faol rivojlanishda davom etmoqda. 2025-yil 1-yanvar holatidagi ma‘lumotga ko‘ra, respublikada rasman 138 ta muzey (filiallarni ham qo‘shgan holda) faoliyat yuritib, ularning kolleksiyalarida qadimgi sivilizatsiyalar artefaktlaridan tortib zamonaviy avangard san‘ati asarlarigacha bo‘lgan millionlab eksponatlar mavjud. 2025-yil davomida Madaniy meros agentligi tizimidagi barcha muzey va muzey qo‘riqxonalariga jami 6 milliondan ortiq mehmon tashrif buyurgan bo‘lib, ularning qariyb 2 million nafarini xorijiy sayyohlar tashkil etgan [16].

4. Xulosa. Muzey ishi – Yangi O‘zbekiston madaniyat siyosatining asosiy yo‘nalishidan biri bo‘lib, uni rivojlantirishda tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlashga hamda innovatsion raqamli texnologiyalar joriy etishga ustuvorlik berilmoqda. Bunda muzeyga ko‘p funktsiyali madaniyat markazi sifatida qarash qaror topib, tarixiy yoki zamonaviy makon uyg‘unligida turizm obyektlari bilan yaxlit kompozitsiyada shakllantirilmoqda.

Muzeylar faoliyatidagi innovatsion o‘zgarishlar avvalo madaniyat tashkilotlari va ko‘ngilochar industriya bilan raqobat sharoitida odamlarni muzeyga jalb etishga qaratilgan. O‘zbekiston muzeylarini innovatsion rivojlantirishda muzeylar faoliyatini raqamlashtirish va virtual turlar hamda interaktiv ko‘rgazmalarni faol joriy etish ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Музейшунослик. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2018. (Museology. Study guide. – Tashkent: Turan-Iqbal, 2018.)
2. Bekmurodov M, Rashidova M. Muzeyshunoslik. T.: “Vorisi Ali”, 2006. (Bekmurodov M, Rashidova M. Museum Studies. T.: “Vorisi Ali”, 2006.)
3. Mavrulov A.A., Saidboboyev Z.A. Muzeyshunoslik. T.: “TURON-IQBOL”, 2018. (Mavrulov A.A., Saidboboyev Z.A. Museum Studies. T.: “TURON-IQBOL”, 2018.)
4. Исмаилова Ж.Х., Мухамедова М.С. Замонавий жаҳон музейшунослиги. Ўқув қўлланма.:Т, 2013. (Ismailova J.Kh., Mukhamedova M.S. Modern world museology. Study guide.:T, 2013.)
5. Алиев В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития (1991 – 2000 гг.) Автореферат дис... д-ра. ист. наук – Ташкент, 2012. (Aliev V. Museums of Uzbekistan and socio-cultural prospects of their development (1991 – 2000) Abstract of the dissertation of Doctor of History – Tashkent, 2012.)
6. Курбонова Д.А. Жаҳоннинг йирик музейларида Ўзбекистонга оид коллекцияларнинг шаклланиши ва уларни комплекташ тамойиллари. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2020. (Kurbonova D.A. Principles of formation and completion of collections about Uzbekistan in major museums of the world. Abstract of the dissertation for the degree of Doctor of Historical Sciences (DSc). Tashkent, 2020.)
7. Курязова Д.Т. Ўзбекистон моддий маданий меросини ўрганиш, сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий-методологик асослари. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2021. (Kuryazova D.T. Theoretical and methodological foundations of the study, preservation and museology of the material cultural heritage of Uzbekistan. Abstract of the dissertation for the degree of Doctor of Historical Sciences (DSc). Tashkent, 2021.)

8. Habibullayev N., Olimov O'. O'zbekiston madaniyati va san'ati dunyo e'tiborida. "Moziydan sado" T. 1-2, 2000. (Habibullayev N., Olimov O. Culture and art of Uzbekistan in the world's attention. "Moziydan sado" T. 1-2, 2000.)
9. Пулатова С.А. Музеи в XXI веке: новые направления и инновационные подходы в деятельности. "Muzeylar: an'ana, novatsiya va renovatsiya integratsiyasida" mazuvida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent, 2024. – B.160-166. (Pulatova S.A. Museums in the 21st century: new directions and innovative approaches in their activities. Proceedings of the international scientific-practical conference on "Museums: in the integration of tradition, innovation and renovation". Tashkent, 2024. - B.160-166.)
10. Президент Ислом цивилизацияси марказида олиб борилаётган ишлар билан танишди. (The President got acquainted with the work being carried out at the Center for Islamic Civilization.) <https://president.uz/uz/lists/view/8579>.
11. Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Миллий музейига асос солди. (Shavkat Mirziyoyev founded the National Museum of Uzbekistan.) <https://president.uz/uz/lists/view/8430>.
12. "Главный экспонат". В Ташкенте проходит мультимедийная выставка "Быть Ван Гогом". ("The Main Exhibit". A multimedia exhibition, "Being Van Gogh", is taking place in Tashkent.) <https://www.gazeta.uz/ru/2022/11/18/van-gogh/>.
13. "Жадидлар. Туркистонга мактублар" кўргазмаси Германияга ўқишга юборилган туркистонлик ёшлар тарихидан сўзлайди. (The exhibition "Jadidlar. Letters to Turkestan" tells the story of young Turkestan people sent to study in Germany) https://uza.uz/uz/posts/jadidlar-turkistonga-maktublar-korgazmasi-germaniyaga-oqishga-yuborilgan-turkistonlik-yoshlar-tarixidan-sozlaydi-video_617703.
14. "Монедан Кандинскийгача". Тошкентда модернист рассомларнинг мультимедиа кўргазмаси давом этмоқда. ("From Monet to Kandinsky." A multimedia exhibition of modernist artists continues in Tashkent) <https://www.gazeta.uz/uz/2023/04/08/modernism/>.
15. Сайёҳлар энг кўп ташриф буюрган музейлар бешталиги. (Top five museums visited by tourists) <https://gov.uz/uz/madaniymeros/news/view/121739>.
16. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi. (Center of Islamic Civilization in Uzbekistan) <https://cisc.uz/uz/about-centre/>.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000